


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI

2023-2024 O'QUV YILIDA IJOD  
MAKTABLARINING 11-SINF O'QUVCHILARI UCHUN

# ADABIYOT

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



**ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI**  
**TIZIMIDAGI IJOD MAKTABI BITIRUVCHILARI UCHUN DAVLAT IMTIHON ESSE**  
**MAVZULARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur Esse spetsifikatsiyasining maqsadi bitiruvchi o'quvchilarning ona tili va adabiyot fanidan bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan esse mavzulari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat. Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasida qo'shimchalar, o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

11-sinfni tugatgan o'quvchilar ona tili va adabiyot fanidan ta'lif dasturi bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir esse mavzulari ona tili va adabiyot fani bo'yicha umumta'lim maktablarning 5-11-sinflari mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, esseni baholash mezonlari ham keltirilgan.

Esse mavzulari kiritilishining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o'quvchilarning ona tili va adabiyot fanlaridan olgan bilimlari hamda savodxonligi mustahkamlanadi, ijodkorlik, so'z boyligidan foydalana olish malakasi oshadi, o'z qarashlarini mantiqiy, tizimli ifodalash tajribasiga ega bo'ladi va shu yo'nalishda fikrini yetkazib berishni o'rganadi.

11-sinflar uchun esse uch variantda tuzilgan bo'lib, har bir variantda uchtadan esse mavzulari bor. Shunga ko'ra, variantdagi mavzularning ikkitasi adabiyot fanidan imtihon materiallari Davlat ta'lif standarti va o'quv dasturida belgilangan mavzular asosida, bittasi esa erkin mavzuda tayyorlandi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari tizimidagi ijod maktablarida tahsil olayotgan 11-sinf o'quvchilari o'rtasida yakuniy attestatsiya o'tkazilishi munosabati bilan imtihon olish uchun esse mavzulari tavsiya etilmoqda. Imtihonda esse tanlanishidan maqsad o'quvchilarda mantiqiy-kreativ mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, imlo va uslubiy

savodxonlikni tarkib toptirish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘quvchi esseni yozib, qayta tekshirib, xatolar ustida ishlashi, qo‘srimchalar qo‘sishi inobatga olinib, 3 akademik soat vaqt belgilanadi.

O‘quvchilarning yozma ishlari ona tili fanlarining har biri uchun alohida 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a‘lo”

baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

#### **11-sinf bitiruvchilari uchun ona tili va adabiyot fanidan ta’limiy maqsadlar**

Grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan me’yorlar:	o‘zbek adabiy tili grammatikasining me’yor va imkoniyatlarini bilish
	nutq uslublarining chegara va imkoniyalarini bilish
	og‘zaki va yozma nutqda so‘z o‘zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo‘srimchalar, grammatik ma’no ifodalovchi vositalarni tanlay olish
	sinonimik va uslubiy imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalana olish
	gapda so‘z tartibiga rioya qilish, gap bo‘laklarini turli turkumga oid so‘zlar, otlashgan so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralar vositasida ifodalay olish
	gap turlaridan, undalmali, kirish so‘zli va birikmali, uyushiq bo‘lakli, ajratilgan izoh bo‘lakli gaplardan, qo‘shma gap turlaridan, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olish
	Sifat ko‘rsatkichlar — matndagi gaplarning mazmunan o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ko‘rsatilgan mavzu doirasida birlashishi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, matndagi xat boshilarning yaxlitligi va fikr izchilligini ta’minlash, o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish, ish qog‘ozlarini yoza olish
Adabiyot	mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olish
	berilgan har qanday mavzuda yozma ravishda mustaqil fikr yurita olish
	o‘qigan asaridan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish
	o‘zga insonning tuyg‘ulari va hissiy kechinmalari xususida fikr yurita olish

	turli mavzularda esse yoza biling
	o‘rganilgan adiblar tabiatiga xos bo‘lgan xislatlarni baholay biling
	adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildira olish va uni asoslay biling
	yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning xislatlarini ochib bera olish
	musiqa yoki rang tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qilish va uni so‘z bilan ifodalab berish
	o‘rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos bo‘lgan xislatlarni anglab, ularga munosabat bildira olish
	o‘rganilgan asarlardagi adabiy qahramonlar xususiyatiga xos bo‘lgan fazilatlarga mustaqil fikr bildira olish
	o‘rganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarni anglay biling
	adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to‘g‘ri baho bera olish

<b>Esseni baholash mezoni</b>	<b>1-2 ta</b>	<b>3-4 ta</b>	<b>5-6 ta</b>	<b>7-8</b>
<b>Imlo xatolari</b>	<b>15 ball</b>	13-14 ball	11-12 ball	9-10 ball
<b>Uslubiy xatolar</b>	<b>15 ball</b>	13-14 ball	11-12 ball	9-10 ball
<b>Tinish belgilari</b>	<b>10 ball</b>	9-10 ball	7-8 ball	5-6 ball
<b>Mavzuning dalillar asosida(asardan parcha) yoritilishi</b>	<b>20 ball</b>			
Esse matnida 2 va undan ortiq xalq maqoli, aforizmlar, she’riy parchalar matn mazmuniga mos bo‘lsa, izohlangan bo‘lsa, erograf qo‘llangan bo‘lsa, tuzilgan reja mavzuga to‘la mos bo‘lsa	15-20 ball			
Maqol, aforizm, she’riy parchalar qo‘llangan, lekin to‘liq izohlanmagan bo‘lsa	9-14 ball			
Faqat maqolning o‘zi qo‘llangan va izohlangan bo‘lsa	4-8 ball			
<b>Badiyligi (so‘z qo‘llash mahorati, she’riy parchalar, maqollar, afforizmlarni qo‘llash)</b>	<b>20 ball</b>			
Iboralarni, sifatlashlarni, ko‘chma ma’noli, sinonim, antonim so‘zlarni o‘rinli qo‘llagan	15-20 ball			

bo‘lsa				
Sinonim so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llagan bo‘lsa	9-14 ball			
Fikr bo‘yoqsiz, shunchaki ma’lumot sifatida qo‘llangan bo‘lsa	4-8 ball			
<b>Husnixat</b>	<b>6 ball</b>			
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo‘lsa	5-6 ball			
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo‘lsa, ravon o‘qish biroz qiyin bo‘lsa	1-4 ball			
<b>Mustaqil fikr bildira olish xususiyati</b>	<b>10 ball</b>			
Har bir ma’lumot izohlanib, xulosa, qiyosiy tahlil qilinib, o‘z munosabati ifodalangan bo‘lsa	7-10 ball			
Mavzu bo‘yicha ma’lumotlar darslik asosida ifodalananib, o‘quvchining o‘z dunyoqarashi ifodalamanmagan bo‘lsa	4-6 ball			
Qolgan holatlar	1-3 ball			
<b>Ozodalik (bo‘yamasdan yozish)</b>	<b>4 ball</b>			
JAMI:	100 ball			

### Esse uchun mavzular:

1. Ba’zilar mamlakat rivojida sporting o‘rni katta ekanligini aytishadi, boshqalar esa davlat ko‘proq ta’limga e’tibor qaratishi lozimligini ta’kidlashadi.
2. Ko‘pchilik Vatan inson tug‘ilib o‘sgan joy ekanligini ta’kidlaydi, ayrimlar esa inson qayerda baxtli yashasa, o‘sha yer Vatan ekanligini aytishadi.
3. Ko‘pchilik insonlar maktabni bitirib oliy ta’limda o‘qish kerakligini yoqlashadi, ayrimlar esa oliy ta’limda o‘qimasdan ham yaxshi joyda ishlash mumkinligini aytishadi
4. Ko‘pchilik insonlar farzand tarbiyasida do‘stona munosabatda bo‘lish kerakligini ta’kidlashadi, ayrimlar esa bu borada qattiqko‘l bo‘lish kerakligini aytishadi .
5. Global ekologiya muammosini bartaraf etish uchun ayrimlar yonilg‘i narxini oshirish kerak deb hisoblaydi, ayrimlar esa bunga qarshi chiqadi.
6. Yurtimiz fuqarolari o‘rtasida shahar ko‘chalaridagi tezlikni belgilash bo‘yicha turli xil ixtiloflar mavjud. Ayrimlar tezlikni qat’iy cheklash haqida fikr bildirsa, boshqalar bunga qarshi chiqmoqda.

7. Ko‘pchilik insonlar fikricha davlat tashkilotlari yoshi katta kadrlardan ko‘ra yoshlarning ko‘proq bo‘lishi kerak ekanligini ta’kidlashadi, ayrimlar esa tajriba muhim ekanligini tushuntirishga harakat qilishadi.

8. Ayrimlar insonning tabiatga aralashuvini ijobiy baholaydi, ba’zilar esa bunga salbiy baho beradi.

9. Paxta milliy boyligimiz hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, oxirgi vaqtarda undan voz kechish, o‘rniga serdaromad ekinlarni ekish fikrlari ilgari surilmoqda. Ayrimlar paxta ekishni saqlab qolish haqida gapirishmoqda.

10. Ayrimlar maktabdagи fanlarni qisqartirish kerak deb hisoblaydi, ba’zilar esa bunga qarshi chiqadi.